Fanlar akademiyasi Direktorlar kengashining navbatdagi yig’ilishi o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Direktorlar kengashining navbatdagi yig’ilishi o’tkazildi.





Kun tartibida O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligiga bag’ishlangan Fanlar akademiyasi ishlanmalari ko’rgazmasiga tayyorgarlikning borishi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni va “2022-2026-yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori ijrosini ta’minlash, Fanlar akademiyasida ijro intizomi holati va topshiriqlar ijrosini ta’minlash masalalari muhokama qilindi va Kengashning tegishli qarorlari qabul qilindi.